

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

2019 yil yanvar oyida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **504,2 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **108,5 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab hajmi **245,2 mlrd.so'mni** chiqarishning o'sish sur'ati **105,9 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **48,6 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **58,7 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 504,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 107,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 92,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 114,4 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yil yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 458,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 91,0 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	2,4	1,4	165,9
Paxta linti, ming tonna	476,0	537,0	88,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	49,2	57,5	85,6
Vino, ming litr	22,3	0,0	22,3 m
Un, ming tonna	10,2	9,3	109,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	2,1	1,3	167,3



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,4 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 245,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 5,9 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 48,6 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2019 yilning yanvar oyida oziq-ovqat tovarlari vino-arq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 85,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 102,7 %ga o'sdi. Nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi esa 160,1 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 % ga o'sdi.

2018 yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 64,2 % dan 2019 yilning yanvar oyida 65,3 % ga o'sib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga ortgani kuzatilmoqda.

Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da





2018 yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 35,8 % dan 2019 yilning yanvar oyida 34,7 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga kamaygani kuzatilmoqda.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 101,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,6% ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 20,0% ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi,%.



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,3 % ulushini), Uchqo'rg'on (10,5 %), Namangan (10,5 %), To'raqo'rg'on (8,4 %), Uychi tumani (7,0 %), Pop (6,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019 yilning yanvar oylarida hududlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (0,9 %), Chortoq (1,5 %), Norin (2,7 %) , Mingbuloq (3,5 %) va Chust (3,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 45,5 %), Namangan (11,1 %), Uchqo'rg'on (11,0 %) hamda To'raqo'rg'on (7,7 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,8 %), Chortoq (2,2 %), Norin (2,2 %) , Mingbuloq (0,9 %) va Chust (3,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida, Pop va sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2019 yilning yanvar oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (351,9 ming so'm), Namangan tumanida (307,2 ming so'm), Uchqo'rg'on (317,0 ming so'm) va To'raqo'rg'on (192,8 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (184,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 91,6 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 187,6 ming so'mni, Namangan tumanida 161,2 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 88,1 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 165,4 ming so'mni tashkil etdi.


2019 yil yanvar oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollari xajmlari



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 58,7 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (100,0 %), Namangan (80,2 %) va Chust (43,1) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (13,7 %), Pop (19,2 %) va Uchqo'rg'on (53,9 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 4499 dan oshiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2112 tasi Namangan shahrida, 322 tasi Chust, 322 tasi Uychi, 310 tasi Namangan, 268 tasi To'raqo'rg'on, 272 tasi Kosonsoy, 168 tasi Chortoq, 165 tasi Uchqo'rg'on, 163 tasi Yangiqo'rg'on, 158 tasi Norin, 147 tasi Pop va 92 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni (бирлик)



2019 yilning yanvar oyida viloyatda 172 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 67,4 % Namangan shahri, Norin, Uychi va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil 1 fevral holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni



Namangan viloyat statistika boshqarmasining Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80